

ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” DOSTONIDAGI TASAVVUFIY G‘OYALAR

FarDU Nabijonova Diyoraxon Ne’matjon
qizi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asari badiiy-tasavvufiy jihatdan o‘rganilgan. Asardagi yetti vodiy va undagi hikoyatlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. majoz, talab, ishq, ma’rifat, istig‘no, tavhid, hayrat, faqr va fano, tasavvuf, ilohiy haqiqat, ruhiy kamolot, ma’naviy komillik, asar genezisi.

Alisher Navoiy Sharq adabiy tafakkurining eng yirik namoyandalaridan biri sifatida tasavvufiy falsafani adabiyot bilan uyg‘unlashtirishda ulkan maktab yaratgan. Uning “Lison ut-tayr” asarida mutafakkirning tasavvufiy, ma’naviy, falsafiy qarashlari umumlashgan tarzda namoyon bo‘ladi. Unda qushlar timsoli orqali inson ruhining Haqqa yetishish jarayoni bayon qilinadi. Asar tarkibidagi yetti vodiy tasavvuf maqomlarining ramziy talqinini ifodalaydi. Har bir vodiy — ruhiy poklanishning bosqichi bo‘lsa, sayr qiluvchi qushlar muridning timsolidir. Alisher Navoiyning barcha asarlaridan o‘zining hajmi va ma’naviy mohiyatining teranligi bilan aralib turuvchi “Lison ut-tayr” asari ramziy-allegorik asar hisoblanib, bunday asarlarning genezisi Ibn Sinoning “Tayr qissasi” risolasiga borib taqaladi. Keyingi davrlarga kelib bu risolaga raddiya tarzida Homid G‘azolliyning “Risolat ut-tayr” asari yozildi. Bu asarlar tuzilish jihatdan Navoiy asaridan qisman farq qiladi. Ibn Sino esa shunday asar yozish an‘anasini boshlab bergan shaxs sifatida e’tirof etiladi. Navoiy yoshligida Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarini sevib o‘qiydi va kelajakda o‘zi ham shu mavzudagi bir asar yozishni niyat qiladi, bu niyatiga esa ellik sakkiz yoshida yetishadi.

“Lison ut-tayr” murakkab irfoniyl doston bo‘lib, Navoiy unda majoziy qushlar va ularning sarguzashtlari orqali olam va ilohiyot haqidagi qarashlari va

fikrlarini to'liq bayon etadi. Bu mulohazalar hayotiy voqealar, kishilarning hatti-harakatlari va ularning xulq-atvoridagi salbiy va ijobiy xislatlar bilan dalillab berilgan.

Asar an'anaviy hamd, nat, munojat, me'roj va sahobalar haqidagi hikoyatlar bilan boshlanib, bu boblar jami 13 bobni o'z ichiga oladi. Bu doston muqaddimasi boshqalaridan sahobalarga ta'rif berilishi bilan ajralib turadi. Asarda Abu Bakr Siddiq, Hazrat Umar Foruqa, Hazrati Usmon va Hazrati Alilarning sifatlari va ularning hayoti haqidagi ibratli voqealar misol qilib keltirilgan. Asar muqaddimasida keltirilgan har bir hikoyatlar va voqealar dostonning asosiy mazmunini ochish vazifasini bajaradi.

Asarda har bir qahramon – qushning ramziy xarakteri va ularning Simurg'ni izlash yo'lidagi sayohati insonning ma'naviy kamolotga intilish jarayonini ifodalanadi. Ushbu doston faqat badiiy asar emas, balki falsafiy-fikriy meros sifatida ham ulkan ahamiyatga ega hisoblanadi. Asarda Hudhud qushi Simrug'ni izlab qushlarga yo'l boshlovchi bo'lib safarga chiqadi. Bu yo'lda ular juda ko'plab qiyinchilik qiyinchiliklarga duch kelishadi. Hudhud qushlarga haqiqiy manzilga yetish uchun yetti vodiyni bosib o'tish kerak ekanligini aytadi va bu vodiylarning har biri o'ziga xos sinovlar va ruhiy poklanish bosqichlaridan iboratligini tushuntiradi. Har bir vodiya qushlar o'zlarining nafslarini yengib, ruhan poklanadi.

Birinchi vodiya - Talab vodiysida qushlar: To'ti, Tovus, Bulbul, Kabutar, Shunqor kabi qushlar Simrug'ni vaslini tilab yo'lga chiqadi. Bu yo'lda qushlar o'z xohish-istaklaridan voz kechib, mashaqqatlarga sabr qilishadi ularga chiday olmaganlaridan birinchi bo'lib To'ti bu yo'ldan qaytmoqchi bo'ladi. Hudhud ularga nasihat qilib yashil chakmon kiygan kishi haqida hikoyani ibrat sifatida aytib beradi va To'ti o'z xatosini tushunadi. Ular bu vodiya o'z kamchiliklari va qusurlaridan sinovlar yordamida qutulishadi.

Ikkinchi vodiya - Ishq vodiysi Navoiy talqinida ruhiy sayrning boshlanish nuqtasi bo'lib, unda qushlar ilohiy muhabbatni qabul qilgan holda yo'lga chiqadilar. Ishq aqlni emas, qalbni boshqaradi. Bu vodiya har bir qush dunyoviy qo'rquvdan voz kechib, ichki jo'shqinlik bilan Haqqa intilishiga ishora qilinadi. Hikoya sifatida qushning daryo uzra uchishi tasviri berilib, ishq unga ilohiy quvvat ato etishi ramziy

tarzda ko'rsatiladi. Bu vodiya Shayx San'on hikoyati keltiriladi. Bu hikoya Shayx San'onning tarso qizini sevib, o'z dinidan, o'zligidan voz kechgani haqida hikoya qiladi. Bu sevgi aslida qizga emas, undagi Allohning bir jilvasiga bo'lib, bu ishq orqali u Haqqa yetadi. Bu hikoyadan keyin qushlarning tashqi va ichki olamida tubdan o'zgarishlar sodir bo'ladi, endi hech kim ortga qaytishni o'ylamaydi. Ishq vodiysi fidoyilik va o'zlikni qurbon qilish darajasidi hisoblanadi. Unda solik o'z jonini maqsad yo'lida qurbon qiladi, yorning ilohiy vasliga intiladi. Haqiqiy ishqni faqat o'zini butunlay fido qilishga tayyor bo'lgan oshiq his qila oladi. Ishqning mohiyati – bu o'rtanish va o'zlikdan kechish bo'lsa, inson o'zlikdan kechsagina haqiqiy ishqqa yetishadi.

Uchinchi vodiya – Ma'rifat vodiysi qushlar Simrug' qushining juda ko'plab sifatlari, uning bilimlarining cheksizligi bilan tanishadilar. Ma'rifat vodiysining murakkabligi va unda mavjud xilma-xil yo'llar tasvirlangan. Ushbu vodiya har bir yo'lovchi o'z yo'li va e'tiqodi bilan ma'rifatga erishishadi. Bu yo'l shunday kengki undan juda ko'plab odamlar uradi, har birining yo'li turlicha, hech biriniki bir-birini takrorlamaydi. Undan Muso alayhissalom ham, Firavn ham yurishi mumkin. Bu yo'ldan Mahdiy yoinki Dajjol ham o'z mazhablarda turadi. Yo'llar shu darajada ko'pki hamma o'zinikini to'g'ri haq yo'l deb o'ylaydi, qolganlarinikini xato deb hisoblaydi. Bunga misol sifatida Hindistonda asirlikka tushgan ko'zi ojiz bir guruh insonlarning hikoyasini keltiradi. Ular ozodlikka chiqib o'z yurtlariga kelishgach ulardan filni tasvirlab berishlarini so'rashadi. Har kim filning turli joylarini tasvirlaydi: kimdir oyog'ini, dumini, hartumini, qulog'ini tasvirlaydi. Ammo hech kimning tasviri bir-birinikiga o'xshamaydi. Barchaning tasviri to'g'ri edi. Xulosa shuki hech kim Haq jamolini ko'rmagan va uni har kim turli tasavvur qiladi va unga yetish yo'lida turli harakat qiladi.

To'rtinchi vodiya – Istig'no (ehtiyojsizlik) vodiysi qanoat qilish, faqat Haqni yetarli deb bilish darajasidir. Bu bosqichda qushlar dunyo lazzatlaridan to'liq voz kechib, ruhiy sokinlikka erishadilar. Sahroda suv izlab, ammo sabr orqali yashashni anglagan qush hikoyasi bu holatning badiiy ifodasidir. Istig'no vodiysi

qalbning to'liq taslim bo'lishi va sokinlik darajasidir. Bu yer barcha narsalarning teng ko'riladigan va ehtiyojsizlik hukmron bo'lgan vodiidir. Bu yerda olamning qudratli hodisalari va kichik voqealari bir xil ahamiyatga ega. Navoiy bu vodiya Shatranj hikoyatini misol qilib keltiradi. O'yinni o'ynab bo'lgandan keyin bu o'yin taxtasini yig'ishtirib qo'ysa undagi shoh ham piyoda ham bir xaltaga tushadi va hatto piyoda shohdan yuqorida bo'lishi mumkin. Bu hikoyat orqali Navoiy qiyomat kuni ya'ni Allohning nazdida hamma teng ekanligi tushuntirib beryapti.

Beshinchi vodiya – Tavhid vodiysi borliqning yagona manbayi borligini anglashdir. Bu yerda qushlar “men” va “sen” tushunchalarini yo'qotib, yagona haqiqatni idrok etadilar. Oynaga qaragan qushning o'zini yo'qotib, Simurg' bilan birligini hisetishadi. Tavhid vodiysi ilohiy birlikni uqish bosqichidir. Bu yo'lda hech qanday ikkilik yo'q, faqat birlik bo'ladi, ikki degan tushunchaning har qaysisi xat'o ekanligini tushunishadi. Bu vodiya Mansur Hallojning hikoyati keltiradi. Uning “Anal Haq” degan so'zi uchun osib o'ldirishadi. U bu so'zni u tushunmasdan “menlik” tushunchasini ilgari suradi. Aslida bu vodiya hech qanday “men” va “sen” yo'q faqat Haq bor.

Oltinchi vodiya – Hayrat vodiysi hamma kar va gung bo'lib qoladi, o'zligini butunlay unutib, qayerda nima qilayotganini, nima uchun kelganini angalay olmaydi. Bu vodiya aql ham, so'z ham ojiz bo'ladigan bosqichdir. Bu vodiya qushlar Haqning buyukligini ko'rib, sukut orqali idrok etadilar. Qushlarning ilohiy nurga yaqinlashib, ko'zlari ko'r, qalblari ochilishi ramziy ifodadir. Hayrat vodiysi so'zning tugashi, idrokning boshlanish bosqichidir. Qushlar ya'ni Haqni izlab yo'lga chiqqan muridlar Allohdan boshqa hech narsa yo'qligini kashf etadilar, Borliq va Yo'qlik o'rtasida o'zlarining borlik yoki yo'qligi, kimligini bilishmaydi. Chinakam solik Haq visoliga yetishishidan oldin o'zini unutishi va parishon holga kelishi tasvirlanadi.

Yettinchi vodiya – Farq-u Fano vodiysida Navoiy bu dunyoni dengiz to'liqiniga o'xshatadi. Biz bilgan bu olam va undagi jamiki narsalar dengiz mavjidek beqaror va foniidir. Fano vodiysi inson kamolotining eng oliy — Haqqa yetish bosqichidir. Bu vodiyni ta'riflashda shoir 4 ta hikoya keltiradi. Ulardan birida

parvonalar haqida bo'lib, ular shamda qanotlarini kuydirib qolganlariga holatini tasvirlab berishmoqchi bo'lishibdi. Biri sham yoniga boribdi va qanotini kuydirib, qolganlariga holatini tasvirlabdi lekin hech kim tushunmabdi. So'nggi parvona o'zini shamga uribdi va unga qo'shilib nurga aylanibdi. U o'z maqsadi uchun nobud bo'libdi va fanoda o'z maqsadiga erishibdi. Huddi shunday Haqqa yetish uchun unga qoshilishi va bit tan-u bir jon bo'lish kerak.

Navoiy bu vodiyan keyin yana uchta bob qo'shadi. Bu qismda fano va baqo haqidagi ma'lumotlar hikoyatlar yordamida ochib beriladi. Baqo holatida qushlar uchun hamma narsa gul-u bo'ston ko'zgu bo'lib, faqat o'z akslarini ko'rishar edi. So'nggi vodiya o'ttiz qush qoladi va qushlarning o'zlari Simurg'ga aylanadi. Fors tilida o'ttiz qush "si murg" deyiladi. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra bu dunyoda har bir inson Haqning bir zarrasi, tajallisidir. Bu dunyodagi har bir mavjudod Allohning zuhuridir, inson buni anglashi uchun juda uzun va mashqatli yo'lni bosib o'tishi kerak.

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dosyoni tasavvufiy tafakkurning eng mukammal namunalaridan biridir. Undagi yetti vodiya inson kamolotining izchil bosqichlarini aks ettiradi. Asar nafaqat ruhiy sayrning badiiy tasviri, balki insonning ichki ma'naviy rivojlanish qonuniyatlarini ko'rsatib beruvchi ulkan manbalardan biridir. Har bir vodiya o'z mazmuni, ramziy hikoyasi va falsafiy xulosalari bilan insoniyatning doimiy izlanish va Haqqa talpinish jarayonini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot. 2005
2. Shuhrat Sirojiddinov. Navoiyshunoslik.- Toshkent: Tamaddun. 2019.
3. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. — Toshkent. 1995.